

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2
0
2
4



No 8

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Bosh muharrir:
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:
Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Elektron nashr. 442 sahifa.

E'lon qilishga 2024-yil 7-avgustda ruxsat etildi.

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
Axmedov Sayfullo Normatovich, i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., Navoiy davlat pedagogika instituti rektori
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, p.f.f.d., (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU Hududiy ta'lim muassasalari va markazlar bo'yicha prorektor v.b.
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TDIUprofessor
Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori
Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d., TSUE professori
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori
Musayeva Shoira Azimovna, SamDu IS instituti professori
Cham Tat Huei, (PhD) USCI universiteti professori, Malayziya
Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d.,(PhD) "EI-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d.,(PhD) TAQU katta o'qituvchisi
Djudi Smetana, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH
Krissi Lyuis, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH
Ali Kopak (Али Кўнак), i.f.d., prof., Karabuk universiteti dosenti, Turkiya
Glazova Marina Viktorovna, i.f.n., "LUKOIL-Energoservis" Kompaniyasi iqtisodchisi, Moskva.
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., (PhD) TDIU dotsenti
Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Oqil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Abdurakhmanov Kalandar Khodjaevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Rae Kwon Chung, honorary professor of TSUE, Nobel laureate, South Korea,

Osman Mesten, member of the Turkish Parliament, head of the Turkey-Uzbekistan Friendship Society

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, DSc, Prof., Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Buzrukkhanov Sarvarkhan Munavvarkhanovich, DSc, Deputy Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Durbek Kudratillayevich, DSc, Prof., Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Sayfullo Normatovich CSc, Prof., Rector of Academy of Labor and Social Relations

Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, DSc, Prof., TSUE Vice-Rector for Scientific Affairs and Innovation

Kalonov Mukhiddin Bakhritdinovich, DSc, Prof., Rector of the Navoi State Pedagogical Institute

Siddikova Sadokat Ghaforovna, PhD, Rector of the Bukhara Institute of Engineering and Technology

Khudoykulov Sadirdin Karimovich, DSc, Prof., acting Vice-rector for regional educational institutions and centers of TSUE

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, DSc, Prof., of TSUE

Samadov Askarjon Nishonovich, CSc, Prof., of TSUE

Slizovsky Dimitriy Yegorovich, DSc, Prof., of the People's Friendship University of Russia

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, DSc, Prof., Rector of International "Nordic" University

Akhmedov Ikrom Akramovich, DSc, Prof., of TSUE

Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja ugli, DSc, Prof., of TSUE

Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of the DGPO of the Republic of Uzbekistan

Ochilov Farkhod, Head of the DCECGPO of the Republic of Uzbekistan

Eshtayev Alisher Abduganievich, DSc, Prof., of TSUE

Shoira Azimovna Musaeva, professor of SamDu IS Institute

Cham Tat Huei, PhD, professor at USCI University, Malaysia

Akhmedov Javokhir Jamolovich, PhD, deputy of executive director of the "El-yurt umidi" fund

Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, PhD, Senior Lecturer at Tashkent University of Architecture and Construction

Judy Smetana CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Chrissy Lewis CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Ali Konak DSc, Prof., Associate Professor of Karabuk University, Turkey

Glazova Marina Viktorovna, CSc, economist at LUKOIL-Energoservis Company, Moscow.

Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, associate professor of TSUE

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, doctoral student at Ankara University, Turkey

Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, independent researcher of TSUE

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori
Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori
Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti
Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti
Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti
G'afurov Doniyor Orifovich, p.f.f.d., (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Benchmarking asosida oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshlik xususiyatini oshirish.....16 Qo'ng'irotboy Avezimbetovich Sharipov, Zaynutdinova Umida Djalolovna	16
Mehnat resurslarini samarali boshqarish orqali ish bilan bandlikni ta'minlash20 Shakarov Zafar Gafforovich	20
Трансформация человеческого капитала в условиях цифровизации и внедрения искусственного интеллекта в банковскую экосистему24 С.С. Исмаилов	24
“Kreativ iqtisodiyot” va “kreativ industriya”: mohiyati, nazariy jihatlarining tahlili32 Dusmuxamedov Oybek Suratbekovich	32
Muammoli kreditlar va ularni bartaraf etish yo'llari.....37 Tojiyev Sardor Dilmurod o'g'li	37
Don mahsulotlari tarmog'ida mavjud kamchiliklar va ularning yechimlari41 Sh.B. Donayev	41
Eksportni rivojlantirish iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biridir45 Xursandov Komiljon Maxmatkulovich	45
Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha soliq ma'muriyatchiligini tashkil etish.....49 Idrisov Alisher Otajonovich	49
Institutsional investorlar faoliyatini tashkil etishning konseptual jihatlarini.....53 Sultanov Maxmud Axmedovich	53
Poverty in developing countries: new problems and solutions.....57 Amirdjanova Sitara Sunnat kizi	57
Факторы, влияющие на успешное функционирование скандинавской модели развития экономики61 Вохидова Мехри Хасановна	61
Анализ зарубежного опыта методологии оценки финансового потенциала развитых стран69 Буранова Лола Вахобовна	69
Mamlakatimizda islom moliyaviy xizmatlarini joriy etishning zarurligi.....78 Babamatov Tolib Hakimovich	78
Davlat-xususiy sheriklik loyihalarining tashkiliy-huquqiy mexanizmlari83 S.A.Karabayev	83
O'zbekiston tijorat banklarida valyuta operatsiyalarini amalga oshirish yo'llari90 Yusupov Aziz Shuxratovich	90
Sanoatda raqamli transformatsiyaning shakllanishi va rivojlanishi95 Gulbayeva Feruza Islamovna	95
Oliy ta'lim muassasalarining mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri..... 102 Sherov Alisher Bakberganovich	102
Maxsus kiyimlar tikishda foydalaniladigan gazlamalar tahlili 107 Sayidova Maftuna Hamroqul qizi	107
O'zbekistonda elektron bank xizmatlarini o'zgartirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish 111 Umarova Malika Baxtiyarovna	111
Оценка влияния налоговой системы на финансовое состояние организаций 116 Умида Юлдашева	116
Теоретическое обоснование интернет-маркетинга в социальных сетях..... 120 Арипходжаев Саидамир Фузулиддинович	120



Sport tashkilotining marketing strategiyasini ishlab chiqish.....	127
Ismoilov Sherzod Dilshodovich	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda klaster tizimini joriy qilish jarayonlari.....	132
Ziyadullayev G'ayrat Umidulla o'g'li	
Hududlar soliq salohiyatini oshirishda soliq risklarini boshqarishning zamonaviy tendensiyalari	138
Sharipov Narzullo G'ulomovich	
O'zbekistonning xalqaro bozordagi faoliyatini kengaytirishda marketing strategiyalaridan foydalanish samaradorligi.....	144
Shadieva Madina Djaloliddin qizi	
Xususiy tadbirkorlik va kichik biznes subyektlarining rivojlanish tendensiyalari.....	148
Jumanazarova Z.K.	
Xalqaro savdoning O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri	154
Rashidov Bekzod Ulug'bek o'g'li, Isayev Laziz Baxtiyorovich	
Oliygochlarni optimallashtirishda sinergiya samarasiga erishish yo'llari	158
Adizov Sanjar Rashidovich	
Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida bank tizimining barqarorligini ta'minlash asosida aholi kambag'allik darajasini qisqartirish	165
Xoliyorov Murod Qahramon o'g'li, Xoliyorova Shoxista Qahramon qizi	
Концептуальная основа маркетинга в социальных сетях в туризме.....	174
Касимова Зилова Гуламиддиновна	
O'zbekistonda don mahsulotlari klasterlarida ishlab chiqarish va xo'jalik faoliyatini rivojlantirish	182
Alimov G'ayratjon Abduraxmon o'g'li	
Актуальные проблемы и пути решения приватизации государственного имущества в узбекистане	186
Шахзод Сайдуллаев	
Ttijorat bank daromadlaridagi risklarni baholash va boshqarishni takomillashtirish	192
Ahmedov Komron Muhammadaliyevich	
Sanoat korxonalarini iqtisodiy salohiyatini oshirishga ta'sir etuvchi omillar tahlili.....	196
Quyjanov Xurshid Abdullayevich	
Tashkilotning moliyaviy natijalarini hisobga olishda auditni takomillashtirish masalalari	200
Bakayev Xurshid Maxmudovich	
Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasi o'rni va ahamiyati	206
Normurzayev Umid Xolmurzayevich	
Анализ международного опыта в сфере тепличного овощеводства	214
Нурутдинова Зухра Алишеровна	
Hududda turizm xizmatlarini rivojlantirishda xorijiy mamlakatlar tajribalarining mohiyati	220
Madaminova Sanobar Askarovna	
Hududning iqtisodiy o'sishini "yashil" iqtisodiyot asosida shakllantirishning nazariy asoslari	226
Shomirzayev Abdug'affor Abdujabbor o'g'li	
Davlat tibbiy sug'urta jamg'armasi faoliyati tahlili.....	230
Umurzakova Mo'tabarxon Nodir qizi	
Qurilish materiallarini ishlab chiqarish korxonalarining boshqarish tizimini takomillashtirish.....	234
Uzakova Umida Ruziyevna	
O'zbekistonda turistik majmualarni boshqarishning zamonaviy konsepsiyalari va yondashuvlarining metodologik jihatlari.....	241
Xomidov Qaxxorali Qurbonali o'g'li	
Aktiv va reaktiv quvvatlari tushunchasi va ularni soliqqa tortishdagi mavjud muammolar	247
Boykabilov Bahodir Mustafayevich	



Kichik sanoat zonalari korxonalar va mahsulotlar raqobatbardoshligini baholashga uslubiy yondashuv	251
Ozoda Batirovna Sakiyeva	
Investitsion jozibadorlikni baholashning uslubiy jihatlari	255
N.N.Zikrillayev	
Hududlarda turizm tarmoqlari infratuzilmasi va uni rivojlantirishni boshqarishning metodologik jihatlari	263
Saidova Dilfuza Abdufattohovna	
The connection of legal protection of geographical indications and state's economic growth	268
Almosova Shahnoza Sobirovna	
Kichik biznesning integratsiyalashuv mexanizmlarini shakllantirish	273
Israilov Rustam Ibragimovich	
Aksiyadorlik jamiyatlarida biznes jarayonlarni samarali boshqarishning nazariy asoslari va o'ziga xos xususiyatlari	277
D.D. Suvanova	
Оптимизация маркетинговой деятельности вузов узбекистана для привлечения абитуриентов	283
Шамшиева Наргизахон Носирхужа кизи	
Davlat budjetidan aholini uy-joy bilan ta'minlashning o'ziga xos xususiyatlari	290
Xannarov Komiljon Karimovich	
Tijorat banklarida transformatsiyalashuv jarayonlarining tahlili	296
Yoqubov Murodjon Valibekovich	
Роль инновационных инфраструктур в обеспечении конкурентоспособности промышленных предприятий	302
Каримов Хожакбар Махамаджон угли	
O'zbekiston qishloq xo'jaligida Osiyocha ishlab chiqarish usuliga asos solinishi	306
Abdulla Abduqodirov	
Kichik biznes korxonalarida ishlab chiqarishda innovatsion jarayonlarni tadqiq qilish yo'llari	312
Nasrullayev Feruz Furqatovich	
Ijtimoiy-iqtisodiy adolat – barqaror rivojlanish kafolati	318
Alimov Nasimjon Hoshimovich	
“Istiqlol” memhonxonasi reklama faoliyati tahlili	322
Musayeva Shoirazimovna, Usmonova Dilfuza Ilhomovna	
To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda asosiy belgilovchi omillar	328
Xaydarov Xurshidbek Latipjonovich	
Enhancing Industrial Efficiency through Integrative Sustainability Approaches	334
Kholmukhamedova Feruza	
Современные способы получения нефтяных битумов	338
Юлдашев Норбек Худайназарович, Махмудов Мухтор Жамолович, Комолов Руслан Илхомбекович	
O'zbekistonda agrobiznes orqali hududlarni rivojlantirish masalalari	342
Islomov Jamshed Davronovich	
Зарубежный опыт трансформации железнодорожной транспортной системы	347
Саримсакова Малохат Хикматуллаевна	
Sog'liqni saqlash sohasida davlat xususiy sherikligini tashkil etishning mintaqaviy xususiyatlari	351
Qurbanov Jumanazar Omonovich	
Savdo korxonalarida buxgalteriya hisobini tashkil etish hamda hisob siyosatini shakllantirish	354
Uzakov Utkir Abdusattarovich	
Sanoatda raqamli transformatsiyaning shakllanishi va rivojlanishi	357
Gulbayeva Feruza Islamovna	



Ta'lim muassasalarida namunaviy shtat, jadvallarni tuzish tartiblarini takomillashtirish	364
Ortiqov Xamroqul Abdumajidovich, Boliyev Bahromjon Rustam o'g'li	
Mamlakatimizda turizm sohasini istiqbolda rivojlantirishga ta'sir etuvchi ekzogen omillar tahlili	369
Yuldasheva Dilnoza Ulug'bekovna	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining masofaviy va boshqa xizmatlar bozorida raqobatni rivojlantirish masalalari.....	378
Ortiqov Oybek Abdullayevich	
Transport infratuzilmasining xususiyatlari.....	390
Shodmonbekova Nodira Kamoljon qizi	
Asosiy vositalarni xalqaro standartlar asosida hisobga olish tartibi	394
Shermamatov Sirojiddin Xaydarovich	
Logistika jarayonlarida raqamli yechimlar.....	399
Yarashova Vasila Kamalovna, Allabergenov Sherzod Maksudbayevich	
To'g'ridan to'g'ri sug'urta qilish operatsiyalari bo'yicha daromadlarning hisobini takomillashtirish.....	403
Abdusaidov S.J.	
Venchur kapitali: kelib chiqish tarixi va ilg'or horijiy tajribalar	409
Do'stov Firuz Ilxomovich	
Анализ статистического исследования рынка паломнического туризма в республике узбекистан	414
Мустаева Шохида Саъдуллаевна	
Структурно-функциональный анализ гастрономического туризма в республике узбекистан	420
Салиева Екатерина Сергеевна	
Вопросы привлечения внешнего финансирования металлургических предприятий в узбекистане.....	427
Татьяна Будей	
Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanishning afzalliklari	431
Khusanov Nodirbek Djumanazarovich	
Innovatsion g'oyalar va yangi ilmiy ishlanmalar asosida innovatsion mahsulotlar yaratishning boshqaruv tizimi samaradorligini oshirish yo'llari.....	437
Daliyev Xusan Xojakbarovich	



INNOVATSION G'UYALAR VA YANGI ILMIY ISHLANMALAR ASOSIDA INNOVATSION MAHSULOTLAR YARATISHNING BOSHQARUV TIZIMI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI

Daliyev Xusan Xojakbarovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola innovatsion g'oyalar va yangi ilmiy ishlanmalar asosida innovatsion mahsulotlar yaratishning boshqaruv tizimi samaradorligini oshirishning asosini yoritib berishga bag'ishlangan. Maqolada innovatsion faoliyat natijalarini tijoratlashtirishning samarali tizimini shakllantirish usullarini o'rganish ushbu maqolaning mazmunini ochib berish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: innovatsiya, tijoratlashtirish, mahsulot, boshqaruv tizimi, yangi ilmiy ishlanmalar.

Abstract: This article is devoted to elucidating the basis of increasing the effectiveness of the management system of creating innovative products based on innovative ideas and new scientific developments. In the article, the study of the methods of forming an effective system of commercialization of the results of innovative activity allows to reveal the content of this article.

Key words: innovation, commercialization, product, management system, new scientific developments.

Аннотация: Данная статья посвящена выяснению основ повышения эффективности системы управления созданием инновационной продукции на основе инновационных идей и новых научных разработок. В статье исследование методов формирования эффективной системы коммерциализации результатов инновационной деятельности позволяет раскрыть содержание данной статьи.

Ключевые слова: инновация, коммерциализация, продукт, система управления, новые научные разработки.

KIRISH

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning strategik maqsadlarini va innovatsiyalarni tijoratlashtirish tuzilmalarini rivojlantirish bo'yicha jahon tajribasini o'rganish shuni ko'rsatadiki, innovatsion infratuzilmaning biznes va ijtimoiy sohalarga ta'siri tobora ortib bormoqda, bu esa, o'z navbatida, innovatsion faoliyatni jadal rivojlanishi uchun sharoit yaratmoqda.

O'zbekistonda so'nggi yillarda iqtisodiyotda boshqaruv tizimidagi yondashuvlarni tubdan o'zgartirish, innovatsion jarayonlarni samarali boshqaruvining xalqaro e'tirof etilgan tamoyillariga amal qilish, mamlakat raqobatbardoshligini oshirish singari jarayonlarni jadallashtirish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi "2022–2026-yillarda O'zbekiston respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-165-son Farmonining "Innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning institutsional mexanizmlarini takomillashtirish orqali innovatsion faol tashkilotlar ulushini oshirish 4.2. bo'limida qo'yidagi chora – tadbirlar amalga oshirilishi vazifasi qo'yilgan.

Bu vazifa esa, innovatsion faoliyat natijalarini tijoratlashtirishning samarali tizimini shakllantirish usullarini o'rganish juda muhim ilmiy vazifa bo'lib, izlanuvchidan – chuqur nazariy, uslubiy va amaliy rivojlanishni talab qiladi, bu esa o'z navbatida, mavzuning dolzarbligi hamda ushbu dissertatsiyaning mazmunini ochib beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Innovatsion mahsulotlarni yaratish va ularni bozorda muvaffaqiyatli joriy etish zamonaviy iqtisodiyotning muhim jihatlaridan biridir. Tadqiqotchilar tomonidan innovatsion g'oyalar va ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish jarayonini samarali boshqarishning turli yondashuvlari o'rganilgan. Shu bilan birga, ushbu jarayonning muhim qismi bo'lgan boshqaruv tizimlarini takomillashtirish ham dolzarb masala sifatida ko'tarilmoqda.

Dunyo tajribasiga ko'ra, innovatsion mahsulotlar yaratishda samarali boshqaruv tizimlari muhim ahamiyatga ega. Masalan, Chesbroughning «Open Innovation» konsepsiyasi (2003) innovatsion mahsulotlarni yara-



tishda tashqi resurslar va fikrlardan samarali foydalanishni ta'kidlaydi. Bu yondashuv tashkilotlarning innovatsion salohiyatini oshirishda ichki va tashqi bilimlarning o'zaro aloqadorligini ta'minlash zarurligini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, Schumpeter (1934) tomonidan ilgari surilgan innovatsion nazariya iqtisodiy o'sishning muhim omili sifatida innovatsiyalarni ko'radi. Ushbu yondashuvda yangi texnologiyalarning joriy etilishi va ular asosida yangi mahsulotlarning yaratilishi iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchi sifatida qaraladi. Schumpeterning nazariyasi bugungi kunda ham dolzarb bo'lib, ko'plab tadqiqotchilar tomonidan chuqur o'rganilgan.

O'zbekistonda innovatsion faoliyatni boshqarish bo'yicha tadqiqotlar o'tkazayotgan iqtisodchi olimlardan biri professor Anvarbek Abdullayevning fikricha, mamlakatda innovatsion mahsulotlarni yaratishning boshqaruv tizimi ko'p jihatdan resurslardan samarali foydalanishga, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishga va yangi texnologiyalarni joriy etishga bog'liq. Abdullayev o'z tadqiqotlarida innovatsion jarayonlarni boshqarishda mahalliy sharoitlarga moslashtirilgan model va usullarni qo'llashning ahamiyatini ta'kidlaydi. Shu bilan birga, u yangi ilmiy ishlanmalarning samaradorligini oshirish uchun mahalliy va xorijiy ilmiy yutuqlarni integratsiyalash zarurligini qayd etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot ishlarini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo'llaniladigan usullardan foydalanildi. Innovatsion mahsulotlar yaratishning boshqaruv tizimi samaradorligini oshirish xossalarini o'rganishda umumiylikdan individuallikka va aksincha tartibda deduksion yoki induksion usullardan foydalanish samara bersa, abstrakt-mantiqiy fikrlash usuli esa jarayonni tizimli tahlil qilishda ahamiyatlidir. Ilmiy tahlil jarayonida ana shu ilmiy tadqiqot usullaridan, xususan, kuzatish, umumlashtirish, guruhlash, taqqoslash, tahlil qilishda esa sintez va tahlil usullarini keng foydalanildi.

TAXLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda innovatsion faoliyatning asosiy natijalari bosqichma-bosqich o'z samarasini ko'rsatmoqda. Muallifning fikricha yaratilgan ilmiy ishlanmalarning amaliyotga tatbiq etilishi natijasida tarmoq va hududlarda quyidagi asosiy natijalarga erishiladi:

- "Navoiyozot" AJda sanoat oqova suvlarini tozalash biotexnologiyasi orqali (Navoiy davlat pedagogika instituti ilmiy loyihasi) zararli suvni iqtisodiy samarador va ekologik xavfsiz usulda tozalanadi. Tozalashdan hosil bo'lgan biomassadan bioo'g'it tayyorlanib, qishloq xo'jaligida organik o'g'it sifatida foydalaniladi.

- Surxondaryo viloyatidagi nasos stansiyalarini to'xtatmasdan loyqa cho'kmalaridan tozalash qurilmasi joriy qilinishi natijasida (Toshket davlat texnika universiteti Termiz filiali loyihasi) bitta nasos stansiyasida bir yilda o'rtacha 10-50 million so'mgacha mablag' tejaladi.

- xududlarda qishloq xo'jaligi mahsulotlariga nokimyoviy usulda zararli mikroblarga qarshi ishlov berish texnologiyasi (Fanlar akademiyasi Mikrobiologiya instituti) orqali mahsulot sifatini uzoq muddatga saqlashga erishiladi.

- "O'ztransgaz" AJ tozalangan tabiiy gazni iste'molchilarga yetkazishda hid hosil qilish uchun qo'llanadigan "Odorant" kimyoviy reagent ishlab chiqarishni mahalliyashtirish natijasida (Buxoro muxandislik texnologiya instituti) yillik import 300 ming AQSH dollariga teng mablag' tejaladi.

- "Olmaliq KMK" AJ mis eritish zavodida texnogen chiqindilarni qayta ishlashga jalb qilinishi hisobiga (Fanlar akademiyasi

- Ion-plazma va lazer texnologiyalari instituti) qo'shimcha 37,0 mln dollarga teng mahsulot ishlab chiqarish imkonini beradi (1,2 ming tonna mis, 174,5 kg oltin va 20,6 tonna kumush).

- Maishiy elektrotexnika vositalari uchun import o'rnini bosuvchi va eksportga yo'naltirilgan "Kremniyli diod termodatchiklari" (Fizika-texnika instituti "Foton" AJ bilan hamkorlikda) ishlab chiqarish yo'lga qo'yiladi (2020 yilda respublikaga ushbu turdagi mahsulot 8,4 mln AQSH dollarga import qilingan).

- Qurilish sohasida mustahkamligi yuqori va chidamli beton olish texnologiyasi tadbiq etilishi natijasida (Transport universiteti)

- 2 polosali 500 km uzunlikdagi yo'l qurilishida yiliga 6 mlrd so'm tejalishi kutilmoqda.

- Bazalt toshidan yillik ishlab chiqarish quvvati 50 ming tonna bo'lgan yong'inga xavfsiz, harorat va kislotaga chidamli sendvich panellari va zamonaviy kompozit qurilish materiallari ishlab chiqariladi (Farg'ona viloyati Yoshlar innovatsiya markazi DUK). Loyiha doirasida 250 ta yangi ish o'rinlar yaratiladi, eksport xajmi 12,0 mln yevroni tashkil etishi rejalashtirilgan.

- Lak-bo'yoq mahsulotlari ishlab chiqarishda qo'llaniladigan yillik quvvati 300 ming tonna bo'lgan polivinilatsetat ishlab chiqariladi (Namangan davlat universiteti). Natijada yillik importni 30%ga qisqartirish va 500 ming AQSH dollargacha daromad olish kutilmoqda.



Xalqaro hamkorlik faoliyati bo'yicha joriy yilning may oyida O'zbekiston va Hindiston ishbilarmon doiralari hamda innovatsiya sohasidagi ekspertlari ishtirokida yosh tadbirkorlar uchun xalqaro seminar tashkil qilindi. Uning doirasida "Tadbirkorlik bo'yicha jahon chempionati" (Entrepreneurship World Cup)ning milliy saralash bosqichiga 130 dan ortiq loyihalar kelib tushgan, ulardan 13 ta startap loyihalar milliy saralash bosqichining finaliga yo'llanma oldi. Tadbir davomida jamoalar o'z g'oyalari va biznes-rejalarini erkin xalqaro Hindiston, Isroil va BAA dan kelgan va mahalliy ekspertlardan iborat.

Mazkur shartnomalar to'liq amalga oshishi natijasida gaz ta'minotida qo'llaniladigan "Odorant" kimyoviy reagenti mahalliyashtiriladi va yillik 300 ming AQSH dollar valyuta sarfi tejaladi, tog'-kon sanoatida radioaktiv radon miqdorini aniqlash uchun radonometr ishlab chiqariladi, olein kislotasini olish texnologiyasi joriy qilinadi, sanoat oqava suvlarini sianid ionlaridan tozalash texnologiyasi joriy qilinadi, qo'shimcha uran olish texnologiyasi joriy qilinadi va uran ishlab chiqarish hajmi esa 15 %ga oshiriladi, metallurgiya tarmog'ida xalqaro standartlarga javob beradigan elektrod qoplamalari ishlab chiqariladi va mahsulot tannarxi o'rtacha 30-50% pasayadi, avtomobil yo'llarida qo'llaniladigan yuqori chidamli beton ishlab chiqarish texnologiyasi joriy etiladi.

Shuningdek, innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarilishini o'zlashtirishga yo'naltirilgan hamda tijoratlashtirishgacha tayyorlash maqsadida 19,037 mlrd. so'mga teng 37 ta loyiha Innovatsiya vazirligi tomonidan moliyalashtirildi, shundan 1,9 mlrd. so'mga teng 13 ta loyihaga tarmoq va xususiy sektor mablag'lari jalb qilindi.

Ustuvor innovatsion, ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik, "startap" loyihalarini o'z xarajatlarini o'zi qoplash asosida moliyalashtirish uchun Jamg'armaga 50,0 mlrd. so'm budjet mablag'lari ajratilgan.

Mazkur qaror ijrosini ta'minlash maqsadida "Ustuvor innovatsion, ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik, "startap" loyihalarini tanlash va o'z xarajatlarini o'zi qoplash asosida moliyalashtirish tartibi to'g'risida"gi Nizom tasdiqlandi.

Innovatsiyalarni tijorat maqsadlarida tatbiq etishda bir qancha bahsli masalalarni belgilash lozim:

- tijoratlashtirish jarayoni ishtirokchilari o'rtasida moddiy qiziqishning yetishmasligini nazarda tutadigan iqtisodiy maydon;
- tashkiliy soha: tuzilish va funksional yetishmovchilik;
- huquqiy soha – innovatsiyalarni tijoratlashtirish jarayonining qonunchilik bazasining nomukammalligini nazarda tutadi;
- moliyaviy soha – innovatsiyalarni tijorat maqsadlarida amalga oshirish uchun investitsiya yetishmasligi yoki yo'qligi masalalari;
- boshqaruv sohasi innovatsiyalarni yaratadigan va ularni tijoratlashtirishga muhtoj bo'lgan tashkilot boshqaruv tizimining nomukammalligi bilan bog'liq muammolarni qamrab oladi;
- innovatsiyalarni tijoratlashtirishda kadrlar bilan bog'liq paydo bo'lishi mumkin bo'lgan muammolar – ularni yaratadigan tashkilotlar xodimlari bilan, zarur kadrlar yetishmasligi – innovatsion brokerlar bilan bog'liq;
- xulq-atvor sohasi, innovatsiya yaratuvchi korxonaning tashkiliy madaniyati hamda bozordagi o'rni bilan bog'liq munozarali masalalardan iborat;
- o'z g'oyalari va ishlanmalarini tijoratlashtirishga intilayotgan innovatsion tashkilotlar uchun axborot maydoni, innovatsiyalarning axborot bazasini yaratish jarayoni va ulardan foydalanish samaradorligi bilan bog'liq;
- marketing sohasi – yangiliklarni yaratadigan va uni tijoratlashtirishga ehtiyoj sezadigan har bir aniq korxonaga uchun marketing vositalaridan foydalanishning kengligini aniqlashga imkon beradi;
- infratuzilma sohasi – innovatsiyalar subyektlari faoliyati bilan bog'liq, innovatsiyalarni tijoratlashtirish jarayoni uchun moddiy-texnik, moliyaviy, tashkiliy-uslubiy, axborot, maslahat va boshqa xizmatlarni ko'rsatadigan resurslar va mablag'larni o'z ichiga oladi;
- texnik soha – innovatsiyalarni tijoratlashtirish maqsadida, infratuzilmani rivojlantirishni ta'minlash uchun texnik imkoniyatlarni nazarda tutadi;
- imidj sohasi – ommaviy axborot vositalarining jamiyat ongida shakllangan tijoratlashtirish infratuzilmasi elementlarining sun'iy qiyofasi bilan bog'liq muammolarni o'z ichiga oladi.

Mahalliy iqtisodiyotning innovatsion infratuzilmasining turli elementlarida innovatsiyalarni tijoratlashtirishning yana bir muhim muammosi, ishlab chiqarish uchun zarur moliyaviy resurslarni va ushbu jarayon bilan bog'liq barcha tavakkalchiliklarni o'z zimmasiga olishga tayyor bo'lgan investorlarni izlash bilan bog'liq.

Texnologiyalarning tijorat jozibadorligini yetarlicha baholash muammosi tijoratlashtirish infratuzilmasining deyarli barcha elementlariga xos bo'lib, ilmiy va texnik mahsulotlarni tijoratlashtirish imkoniyatlarini izlash amaliyoti hali etarlicha rivojlanmaganligi bilan bog'liq, har bir ishlab chiquvchi potensial xaridorlar va investorlarni izlash bilan shug'ullanadi, ba'zi hollarda iste'molchilarning innovatsion mahsulotlarni sotib olishga yoki ularni iste'molchilarga qiziqish uyg'otadigan turiga sarmoya kiritishni istamasliklari bilan duch keladi.

Intellectual mulkni himoya qilish va ulardan bozorda foydalanish sohasida ishlab chiqaruvchilarning sust huquqiy savodxonligi, shuningdek, umuman olganda, ushbu sohadagi qonunchilikning nomukammalligi va uning yechimi davlat darajasida juda muhim muammodir.



Innovatsionlik mezonlari ko'rsatkichlari muammosi, tijoratlashtirish uchun infratuzilmani rivojlantirishda axborot sohasida ziddiyatli masalalar paydo bo'lishini anglatadi. Zamonaviy biznes hamjamiyati zudlik bilan foyda ko'rish, kam xavfli va arzon loyihalarni qo'llab-quvvatlaydi. Innovatsion biznesning rentabelligi boshqa faoliyat turlariga qaraganda, ancha yuqori bo'lishiga qaramay, bunday biznes yuqori tavakkalchilik va uzoq rivojlanish davriga ega.

Innovatsion mahsulot deganda, quyidagi xususiyatlarga yega bo'lgan mahsulotga tushuniladi: mahsulotning jahon bozoriga chiqarilishida cheklolar yo'q; oziq-ovqat mahsuloti (to'g'ridan to'g'ri analoglari yo'q) yoki raqobatdosh mahsulotlarga nisbatan sezilarli afzalliklarga yega; ma'lum bo'lgan mahsulotning bir nechta texnik parametrlarini sezilarli darajada yaxshilaydi.

Universitetlarda kichik biznesni yaratish va ro'yxatdan o'tkazish muammosi munozarali tashkiliy masaladir. Intellektual mulk muammosi, ilmiy-tadqiqot institutlari va universitetlardan unga huquqlarni olish muammosi hali ham mavjud. Intellektual mulk huquqi va investitsiyalarni olish uchun garov bo'lmas ekan, xorijiy patent olish va kichik korxonalarni start-up bosqichida qo'llab-quvvatlash mavjud bo'lmaydi.

Yangi korxonani ochish uchun texnologiya, aylanma mablag'lar, yuridik ro'yxatdan o'tish, ishchilarning ish haqi va hujjatlar to'plamini olish xarajatlari bilan birga kamida 10 ming dollar talab qilinadi. Sarmoyalarga bo'lgan uzoq muddatli ehtiyoj, ish uchun ofis yo'qligi, yuqori ijara haqi va ruxsatnomalar, cheklar olishning murakkab tizimi, ishlov berish vaqti, sertifikatlar va litsenziyalarni olishning murakkab, qimmat va ko'p vaqt talab qiladigan tizimi.

Kichik korxonaning jahon bozoriga kirib olishining iloji yo'qligi, chet ellik sheriklar insofsiz bo'lgan taqdirda ularning manfaatlarini himoya qilish qiyinligi (yuridik xarajatlar mavjud emas). Bank tizimidagi ishonchsizlik, qonunchilikning beqarorligi va mantiqsizligi, kafolatlar va sug'urtaning yetishmasligi, biznes-agentlari va xorijiy investorlarni jarayonda ishtirok etishdan bosh tortishlariga olib keladi. Reklama uchun soliq, reklama va piar kompaniyalari davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanmaganligi, intellektual mulk obyektlarini balansga ro'yxatdan o'tkazishning murakkabligi, uning analoglariga soliq solish. Innovatsion mahsulotlarga davlat buyurtmalari tizimining yetishmasligi.

Agar muassasa mualliflari intellektual mulkni yaratgan bo'lsalar, unda uni xarajatlar qismida baholash va muvozanatlash juda qiyin. Patentlar, ruxsatnomalar, sertifikatlar, litsenziyalar, test hisobotlari, ishlab chiqish vaqtida mualliflarning ish haqi – bu intellektual mulkni yaratish xarajatlardir.

Biroq, bu xarajatlar intellektual mulk qiymati to'g'risida hech narsa anglatmaydi, sababi, intellektual mulk keyingi xarajatlar va daromadlar bilan belgilanadi. Muassasa, intellektual mulk obyektlarini ma'lum darajada munosib narxda (bozor narxida yemas) balansga qo'yishi va darhol QQS va daromad solig'ini to'lashi mumkin. Bundan tashqari, balansga qo'yilgan qiymatning bir foizini nomoddiy aktiv sifatida to'lash kerak bo'ladi. Soliqlarni yig'ish uchun hukumat intellektual mulkni yaratishni rag'batlantiradi, ammo muassasa yoki korxonani qidirmaydi. Faqatgina, intellektual mulk sotuvga tayyorlanayotgan bo'lsa va unga xaridor bo'lsa, soliq va amortizatsiya to'lovlarini to'lash zarurligini aytib, litsenziya narxini yoki korxonani mahsuloti, mahsulotning qiymatini oshirish mantiqan to'g'ridir.

Yuqorida keltirilgan muammolarni ko'rib chiqish va ularning tijoratlashtirish infratuzilmasi elementlari (biznes-inkubator, ilmiy-tadqiqot institutlaridagi tijoratlashtirish bo'limi, konstruktorlik byurolari, universitet, texnologiya uzatish markazlari va boshqalar) tomonidan hal etilishi darajasini baholash muhimdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ushbu yo'nalishda faoliyat ko'rsatayotgan olimlar asarlarida, innovatsiyalarni tijoratlashtirish tizimini va innovatsion infratuzilmasini shakllantirishning nazariy va uslubiy asoslari yaratilgan. Biroq, to'plangan tajribani qayta ko'rib chiqish va iqtisodiyotdagi doimiy o'zgarishlarga, ya'ni – ichki innovatsion ishlanmalarni rivojlantirishga va ularni mamlakat iqtisodiyotiga joriy etishga qaratilgan import o'rnini bosish strategiyasini paydo bo'lishi va kuchayishiga mos keladigan bunday kombinatsiyalarni, xududlarning potentsialini hisobga olgan holda ishlab chiqmoq lozim. Iqtisodiy rivojlanish vektorini, import o'rnini bosish tomon siljitish yo'nalishi bo'yicha nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan masalalarni talqin qilish, ushbu dissertatsion tadqiqot ishi mavzusini tanlash, uning maqsad va vazifalarini belgilab olishga ko'mak berdi.

Mamlakatimiz ilm-fanning ilg'or yutuqlari va istiqbolli innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqarishga keng joriy etish, pirovard natijada iqtisodiyot tarmoqlari va tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirish O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim yo'nalishlaridan biridir.

O'tgan qisqa vaqt mobaynida sohada to'planib qolgan muammolarni bartaraf etish, jumladan, ilmiy-tadqiqot muassasalari faoliyatini tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish, ilmiy ishlanma va ilmiy xajmdor texnologiyalarni ishlab chiqarishga tadbiriq etish uchun innovatsion muhitni yaxshilash, ilmiy-tadqiqot faoliyatining samaradorligi va sifatini oshirish, olinayotgan ilmiy-amaliy natijalar va yaratilayotgan ilmiy xajmdor mahsulotlarning ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardoshligini ta'minlashga yo'naltirilgan tadbirlar amalga oshirildi, bir qancha muhim farmon va qarorlar qabul qilindi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 6 июлдаги “2022 – 2026 йилларда Ўзбекистон республикасининг инновацион ривожланиш стратегиясини тасдиqlаш тўғрисида”ги ПФ-165-сон Фармони. lex.uz
2. Давлатов С.С. Мамлакат иқсодиёти рақобатбардошлигида олий таълим сифатининг таъсирини баҳолаш// Иқтисод ва молия. –Тошкент, 2013. –№12. –Б. 24-29.
3. Джаббарова Н. Неопределенность в управлении инновационной деятельностью// Биржа эксперт. –Тошкент, 2012. –№7-8, –С . 61-64.
4. Жураев С. Переход Узбекистана к наукоемкой экономике// Бозор, пул ва кредит. –Тошкент, 2012. –№12. –Б. 32-35.
5. Жўраев А. Инвестиция фаолиятини рағбатлантириш// Жамият ва бошқарув. –Тошкент, 2011. –№ . –Б. 82-85.
6. Заирова Ф. Подготовка рабочих кадров и повышение их квалификации как фактор инновации в отраслях промышленности// Биржа Эксперт. –Тошкент, 2010. –№8. С. 57-63.
7. Зайнутдинов Ш.Н. Потенциал и эффективность науки / Г. Биржа. –Тошкент, 2012. –№116 (1527). –С. 13.
8. Зуфаров Ш. Инновациялар намоён бўлиш хусусиятлари// Жамият ва бошқарув. –Тошкент, 2010.–№.–Б. 132-134.
9. Ибрагимов Б. Модернизациялаш шароитида худудларнинг ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш стратегиясини шакллантириш// Биржа Эксперт. –Тошкент, 2011. –№1-2. –Б. 32-34.
10. Исламов А. Модернизация жараёнининг таркибий қисмлари// Жамият ва бошқарув. –Тошкент, 2011. –№ . –Б.128-129.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

